NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Xatirchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 34 uy, e-mail: xatirchi@nv.uz

2024 - yil 6 - yanvar 4-5-77-Q/24 Xatirchi tuman hokimligi

Bugungi tinch va osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimizning yorqin xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushi davrida ko‘rsatgan jasorati, bukilmas irodasi va matonati, insonparvarlik fazilatlari avlodlar uchun muqaddas xotira va odamiylikning yuksak namunasi bo‘lib qolmoqda.

Bugungi tinch va osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimizning yorqin xotirasini yod etib, ularning ezgu ishlarini munosib davom ettirish, tinchlikni buyuk ne’mat deb biladigan bag‘rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat, sadoqat, mardlik va fidoiylik ruhida tarbiyalash, aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda qahramonlik ko‘rsatib, xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo‘lganlarning xotirasini abadiylashtirish hamda 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Yosh avlodning ma’naviy olamini yuksaltirish, ona Vatanga muhabbat va ajdodlar jasoratiga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida tuman markazida joylashgan “Xotira maydoni”ning yangidan qurish bo‘yicha dastlabki loyiha taklifi ishlab chiqilganligi, mazkur taklif loyiha nuroniylar, deputatlar, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari tomonidan qo‘llab-

quvvatlanib, ma’qullanganligi inobatga olinsin.

2. Tumandoshlarimizdan Qatag‘on qurboni bo‘lgan, Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan, front ortida mehnat qilgan, Afg‘on urushida qatnashgan, Chernobil fojiasi ishtirokchilari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida vafot etgan harbiy xizmatchilar hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mehnatda namuna bo‘lgan mehnat faxriylari ro‘yxatlarini ko‘chalar, qishloqlar va mahallalar kesimida tayyorlash maqsadida tuman Ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Ishchi guruhi rahbari J.Rashidov Ishchi guruhi a’zolari bilan birgalikda ko‘chalar, qishloqlar va mahallalar kesimida Qatag‘on qurbonlari, Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari, front ortida mehnat qilganlar, Afg‘on urushi qatnashchilari, Chernobil fojiasi ishtirokchilari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida vafot etgan harbiy xizmatchilar hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mehnatda namuna bo‘lgan mehnat faxriylarining ro‘yxatlarini tayyorlab, tayyorlangan ro‘yxat bo‘yicha asoslantirilgan tegishli hujjatlar yig‘ma jildlarini shakllantirsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari Q.Farmonovga “Xotira maydoni”ning dastlabki taklif loyihasiga aholi tomonidan bildiriladigan takliflarni inobatga olib, belgilangan qurilish me’yorlariga asoslangan holda o‘zgartirishlar kiritilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. “Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limi raisi I.Mustafoyev, tuman hokimligi axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi N.Namozov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi rahbari I.Toshonov, Ma’naviyat va ma’rifat bo‘linmasi rahbari Z.Nematovlar birgalikda “Xotira maydoni”ning yangidan qurish bo‘yicha dastlabki taklif loyihasini aholi orasida keng muhokamasini tashkil etish uchun tegishli targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi N.Namozov “Xotira maydoni”ning yangidan qurish bo‘yicha dastlabki taklif loyihasini tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda ijtimoiy

tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirsin.

7. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **U.Adizov**

Xatirchi tuman hokimining
2024-yil 6-yanvardagi
4-5-77-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumandoshlarimizdan Qatag‘on qurboni bo‘lgan, Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan, front ortida mehnat qilgan, Afg‘on urushida qatnashgan, Chernobil fojiasi ishtirokchilari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida vafot etgan harbiy xizmatchilar hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mehnatda namuna bo‘lgan mehnat faxriylari ro‘yxatlarini ko‘chalar, qishloqlar va mahallalar kesimida tayyorlash maqsadida tuzilgan tuman ISHCHI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.SH	Lavozimi
1.	J.Rashidov	Tuman hokimi o‘rinbosari, Ishchi guruhi rahbari
2.	I.Mustafoyev	“Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limi raisi, Ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3.	Z.Nematov	Ma’naviyat va ma’rifat bo‘linmasi rahbari, Ishchi guruhi kotibi
Ishchi guruhi a’zolari		
4.	O.Ro‘zimurodov	Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
5.	Q.Farmonov	Tuman hokimining o‘rinbosari
6.	M.Raxmonova	Tuman hokimining o‘rinbosari
7.	J.Ergashev	Milliy gvardiyaning tuman bo‘limi rahbari
8.	N.Namozov	Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi
9.	I.Toshonov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi rahbari
10	N.Xaydarov	Mudofaa ishlari bo‘limi rahbari
11.	N.Arabov	Madaniyat bo‘limi rahbari
12.	O.Toshonov	Tuman hokimining maslahatchisi
13.	M.Muxtorov	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi rahbari
14.	U.To‘rayev	Yoshlar ishlari bo‘limi rahbari
15.	J.Qaxxorov	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari
16.	I.Xolboyev	“Xatirchi hayoti” gazetasi muharriri
17.	K.Qo‘ldosheva	Axborot kutubxona markazi direktori
18.	A.Irisqulov	Tuman Davlat arxivi rahbari
19.	A.Inoyatov	Mehnat faxriysi, o‘lkashunos
20.	Lavozimiga ko‘ra	Tumandagi boshqarma, bo‘lim, bo‘linma, korxona va tashkilotlar rahbarlari

21.	Lavozimiga ko‘ra	Tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari